

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	9
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY.....	16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI	44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
MACHINE LEARNING-ASSISTED PREDICTION OF FIRE-RETARDANT AND PRESERVATIVE PERFORMANCE OF CHEMICALLY MODIFIED WOOD: AN ECO-FRIENDLY APPROACH.....	52
Usmanova Maftunakhon Abror qizi	
TEMIR YO'L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA MAYDON QURILMALARINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH ISHONCHLILIGINI UYALI ALOQA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	60
Botirov Abdulaziz Temir o'g'li	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IDA NOL STAVKANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66
A.A. Bobomurodov	
KERAMIKA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MEHNAT SHAROITLARINI SANITAR-GIGIYENIK VA INTEGRAL BAHOLASH («OZIQ-OVQAT STANDART KARTON» MCHJ TARKIBIDAGI «TOSHKENT KAFEL» KORXONASI MISOLIDA)	71
S. Sulaymanov, N.A. Erdonova	
PYTHON-BASED NUMERICAL ANALYSIS OF THE LOGISTIC POPULATION GROWTH MODEL	76
Berdiyev Shohjahon, Khayitova Fayza	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOT HAJMIGA SOLIQ OMILINING TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	85
Fayziyeva Nargiza Rabimovna	
ISHLAB CHIQUARISH KICHIK BIZNESINI HUDUDIY JOYLASHTIRISH OMILLARI VA IXTISOSLASHUV YO'NALISHLARINI BAHOLASH	93
Salimov Burxoniddin	
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	98
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
CHUQUQ O'RGANISH ARXITEKTURALARI ASOSIDA O'ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH	105
Uzoqov Lochinbek Mamurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	111
Almanov Ilhom Sultonovich	



TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN ISHLAB CHIQARISHNI MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI	125
Iskandarova Dilorom Xayrullayevna	
KORXONALARDA BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING GLOBAL VA MILLIY AMALIYOTI TAHLILI	130
Jumaev Sohib Baxodirovich	
YOSHLARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI IQTISODIY FAROVONLIKKA KONVERSIYA QILISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEKANIZMI	136
Palvonova Sevara Baxromovna	
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI TIZIMIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	141
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	
ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ.....	148
Mўminjonov Anvarbek Сайфитдин угли	
NOQISHLOQ XO'JALIGINING TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASHDA ILMIY- USLUBIY YONDASHUVLAR	156
Nurullayev Ulug'bek	
TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING ROLI	161
Karimova Dilafruz Sadirdin qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREATIV XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	166
Xamroyeva Sitora Otabekovna	

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREATIV XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI



Xamroyeva Sitora Otabekovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Turizm" kafedrasida stajyor-assistenti

E-mail: xamroyevasitora29@gmail.com

ORCID: 0009-0000-2800-1804

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida kreativ xizmatlar bozorining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari tadqiq etilgan. Kreativ xizmatlar zamonaviy iqtisodiyotda bilim, intellektual kapital, innovatsiya va raqamli texnologiyalar uyg'unligiga asoslangan, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan faoliyat turi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotda kreativ iqtisodiyotning nazariy asoslari, raqamlashtirishning kreativ xizmatlar bozoriga ta'siri, platforma iqtisodiyoti, sun'iy intellekt, raqamli kontent, dizayn, media, reklama, dasturiy ta'minot va audiovizual xizmatlarning rivojlanish xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, qiyosiy, institutsional, statistik va kontent-tahlil usullariga asoslandi. Xalqaro ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda O'zbekistonning kreativ iqtisodiyot va raqamli rivojlanishga oid strategik hujjatlari o'rganildi. Tadqiqot natijasida kreativ xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi beshta asosiy omil: raqamli infratuzilma, inson kapitali, platforma iqtisodiyoti, innovatsion texnologiyalar va institutsional qo'llab-quvvatlash aniqlandi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida kreativ xizmatlar bozorini rivojlantirishning institutsional-iqtisodiy modeli taklif qilindi.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisodiyot, kreativ xizmatlar, raqamli iqtisodiyot, raqamli platformalar, kreativ industriya, sun'iy intellekt, inson kapitali, innovatsiya, raqamli kontent, O'zbekiston.

Аннотация. В данной статье исследуются процессы формирования, тенденции развития и перспективы рынка креативных услуг в условиях цифровой экономики. Креативные услуги в современной экономике выступают как вид деятельности, основанный на сочетании знаний, интеллектуального капитала, инноваций и цифровых технологий, создающий высокую добавленную стоимость. В исследовании проанализированы теоретические основы креативной экономики, влияние цифровизации на рынок креативных услуг, особенности развития платформенной экономики, искусственного интеллекта, цифрового контента, дизайна, медиа, рекламы, программного обеспечения и аудиовизуальных услуг. Методология исследования основана на использовании системного, сравнительного, институционального, статистического методов и контент-анализа. Изучены международная научная литература, отчёты международных организаций, а также стратегические документы Узбекистана в области креативной экономики и цифрового развития. В результате исследования выявлены пять основных факторов, влияющих на развитие рынка креативных услуг: цифровая инфраструктура, человеческий капитал, платформенная экономика, инновационные технологии и институциональная поддержка. Кроме того, предложена институционально-экономическая модель развития рынка креативных услуг в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: креативная экономика, креативные услуги, цифровая экономика, цифровые платформы, креативная индустрия, искусственный интеллект, человеческий капитал, инновации, цифровой контент, Узбекистан.

Abstract. This article examines the formation, development trends, and prospects of the creative services market in the context of the digital economy. In the modern economy, creative services are emerging as a type of activity based on the combination of knowledge, intellectual capital, innovation, and digital technologies that generates high added value. The study analyzes the theoretical foundations of the creative economy, the impact of digitalization on the creative services market, and the development characteristics of the platform economy, artificial intelligence, digital content, design, media, advertising, software, and audiovisual services. The research methodology is based on systematic, comparative, institutional, and statistical methods, as well as content analysis. International academic literature, reports of international organizations, and strategic documents of Uzbekistan related to the creative economy and digital development were examined. The study identifies five key factors influencing the development of the creative services market: digital infrastructure, human capital, the platform economy, innovative technologies, and institutional support. In addition, an institutional and economic model for the development of the creative services market in Uzbekistan is proposed.

Keywords: creative economy, creative services, digital economy, digital platforms, creative industries, artificial intelligence, human capital, innovation, digital content, Uzbekistan.



KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga chuqur kirib borishi natijasida iqtisodiy qiymat yaratishning an'anaviy mexanizmlari tubdan o'zgarmoqda. Raqamli platformalar, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar, virtual reallik va boshqa texnologiyalar yangi biznes modellarining shakllanishiga olib kelmoqda. Mazkur transformatsiya jarayonida kreativ xizmatlar bozori alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kreativ xizmatlarning asosiy resursi moddiy kapital emas, balki bilim, ijodkorlik, intellektual kapital va innovatsion g'oyalar hisoblanadi [1].

Kreativ iqtisodiyot tushunchasi dastlab madaniy va ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, raqamlashtirish natijasida uning chegaralari sezilarli darajada kengaydi. Bugungi kunda kreativ xizmatlar tarkibiga reklama, grafik va sanoat dizayni, dasturiy ta'minot, raqamli marketing, kino va animatsiya, musiqa, videoo'yinlar, arxitektura, media, kontent yaratish va boshqa ko'plab faoliyat turlari kiradi [2].

Howkins kreativ iqtisodiyotning asosiy resursi sifatida inson ijodkorligini ko'rsatib, intellektual mulk yaratish va undan iqtisodiy qiymat olish jarayonini kreativ iqtisodiyotning markaziy elementi sifatida baholaydi [3]. UNCTAD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa kreativ iqtisodiyot global iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi [4].

Raqamli iqtisodiyot kreativ xizmatlar bozorining geografik chegaralarini ham o'zgartirdi. Avvallari kreativ xizmat ko'rsatuvchi shaxs yoki kompaniya asosan mahalliy bozorda faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda raqamli platformalar orqali global mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega. Freelance platformalar, elektron tijorat, ijtimoiy tarmoqlar, streaming xizmatlar va raqamli marketpleyslar kreativ mahsulotlarning xalqaro bozorga chiqishini sezilarli darajada osonlashtirmoqda.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining tez rivojlanishi kreativ xizmatlar bozorida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Generativ AI grafik dizayn, matn yaratish, musiqa, video va reklama kontentlarini ishlab chiqish jarayonlarini avtomatlashtirmoqda. Bu esa kreativ mutaxassislarining mehnat unumdorligini oshirishi bilan birga, intellektual mulk, mualliflik huquqi va kreativ mehnatning kelajakdagi shakllari bo'yicha yangi savollarni yuzaga chiqarmoqda.

O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot va kreativ industriya rivojlanishi uchun muayyan institutsional sharoitlar shakllanmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, xizmatlar sektori va inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan [5].

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekistonda kreativ xizmatlar bozorining salohiyati yuqori bo'lsa-da, uning raqamli iqtisodiyot bilan integratsiyasi, institutsional mexanizmlari va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kompleks tadqiq etish zarurati mavjud.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida kreativ xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash hamda O'zbekiston sharoitida kreativ xizmatlar bozorini rivojlantirish istiqbollarini belgilashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ xizmatlar bozorining rivojlanishi zamonaviy raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri sifatida xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Xorijiy olim R. Florida kreativ sinf konsepsiyasini ilgari surib, iqtisodiy rivojlanishda ijodkorlik, bilim va inson kapitalining ahamiyatini asoslaydi [2]. Muallifning ushbu qarashlari kreativ xizmatlarning asosiy resursi moddiy kapital emas, balki kreativ salohiyat ekanligini tushuntirishda muhimdir. Bizning fikrimizcha, mazkur yondashuv O'zbekiston sharoitida yoshlarning kreativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini nazariy jihatdan asoslaydi.

J. Howkins kreativ iqtisodiyotning markaziy resursi sifatida inson ijodkorligini ko'rsatib, g'oyalarni intellektual mulkka va iqtisodiy qiymatga aylantirish jarayonini kreativ iqtisodiyotning asosiy mexanizmi sifatida talqin qiladi [3]. Bizningcha, ushbu konsepsiya raqamli platformalar rivojlanayotgan sharoitda kreativ xizmatlarni eksport qilindigan iqtisodiy mahsulot sifatida baholash imkonini beradi.

UNCTAD tadqiqotlarida kreativ iqtisodiyot global iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi muhim yo'nalish sifatida baholanadi [4]. Ushbu yondashuv kreativ xizmatlarning nafaqat madaniy, balki iqtisodiy va eksport salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Muallif fikricha, O'zbekiston uchun mazkur imkoniyatlardan foydalanish kreativ xizmatlar eksportini kengaytirish va yoshlar bandligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

UNESCO kreativ industriyalarni madaniyat, innovatsiya va barqaror rivojlanish bilan bog'liq holda tadqiq etadi [6]. OECD esa kreativ odamlar, hududlar va industriyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi roliga e'tibor qaratadi [9]. Bizningcha, ushbu qarashlar kreativ xizmatlar bozorini rivojlantirishda faqat texnologik infratuzilmani emas, balki kreativ muhit va inson kapitalini ham shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy manbalar orasida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, xizmatlar

sektori va inson kapitalini rivojlantirishning strategik asoslarini belgilaydi [5]. Muallif fikricha, ushbu yo'nalishlarni kreativ industriyalar bilan integratsiyalash O'zbekistonda kreativ xizmatlar bozorining institutsional va iqtisodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Umuman, adabiyotlar tahlili kreativ xizmatlarning rivojlanishi inson kapitali, raqamli platformalar, innovatsiya, intellektual mulk va institutsional qo'llab-quvvatlashning o'zaro ta'siriga bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida mazkur omillarning yagona iqtisodiy model doirasidagi o'zaro bog'liqligi yetarlicha kompleks o'rganilmagan. Mazkur ilmiy bo'shliq tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kreativ xizmatlar bozorining raqamli iqtisodiyot sharoitidagi rivojlanish xususiyatlarini kompleks o'rganish uchun bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Birinchidan, tizimli tahlil metodi orqali kreativ xizmatlar bozori iqtisodiy tizimning alohida segmenti sifatida emas, balki raqamli texnologiyalar, inson kapitali, innovatsiya, intellektual mulk va platforma iqtisodiyoti bilan o'zaro bog'langan tizim sifatida o'rganildi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil metodi yordamida kreativ iqtisodiyotning xalqaro rivojlanish tendensiyalari va O'zbekiston sharoitidagi rivojlanish imkoniyatlari taqqoslandi. Bunda UNCTAD [4], UNESCO [6] va World Bank [7] tadqiqotlaridagi nazariy va statistik yondashuvlardan foydalanildi.

Uchinchidan, institutsional tahlil yordamida O'zbekistonda kreativ industriya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, strategik hujjatlar va institutsional mexanizmlar o'rganildi.

To'rtinchidan, kontent-tahlil usuli orqali kreativ iqtisodiyot, raqamli xizmatlar va innovatsion faoliyatga oid ilmiy maqolalar, xalqaro hisobotlar hamda strategik hujjatlar o'rganildi. Tahlil jarayonida "creative economy", "creative services", "digital platform", "digital content", "innovation", "intellectual property" va "human capital" kabi asosiy kategoriyalar ajratib olindi.

Beshinchidan, deskriptiv-statistik tahlil yordamida kreativ xizmatlar bozorining asosiy iqtisodiy indikatorlari va rivojlanish tendensiyalari umumlashtirildi.

Oltinchidan, SWOT-tahlil yordamida O'zbekiston kreativ xizmatlar bozorining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlandi.

Yettinchidan, strukturaviy-funksional modellashirish yordamida kreativ xizmatlar bozorining rivojlanish mexanizmi ishlab chiqildi. Ushbu modelda raqamli infratuzilma, inson kapitali, platformalar, intellektual mulk va institutsional qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi bog'liqlik asosiy element sifatida qabul qilindi.

Mazkur metodlarning kombinatsiyasi kreativ xizmatlar bozorini texnologik, iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy jihatlarini birlashtirgan holda o'rganish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida kreativ xizmatlar bozorining rivojlanishi an'anaviy xizmat ko'rsatish modelidan platformaviy va global modelga o'tish bilan tavsiflanishini ko'rsatdi.

Bugungi kunda kreativ xizmatlar bozorining asosiy xususiyati — ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi geografik masofaning ahamiyati kamayishidir. Masalan, O'zbekistonda faoliyat yurituvchi grafik dizayner yoki dasturchi xorijiy mijozga masofadan turib xizmat ko'rsatishi mumkin. Natijada kreativ xizmatlar eksporti uchun yangi imkoniyatlar shakllanadi.

Kreativ xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalarini quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin.

1. Platformalashuv. Raqamli platformalar kreativ xizmatlar bozorining asosiy infratuzilmasiga aylanmoqda. Frilans platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli marketpleyslar va professional tarmoqlar kreativ mutaxassislarni global iste'molchilar bilan bog'lamoqda.

Platformalashuvning iqtisodiy afzalligi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va bozor axborotining tezkor almashinuvini ta'minlashdan iborat.

2. Kreativ xizmatlarning globallasuvi. Raqamli texnologiyalar kreativ xizmatlarni eksport qilnadigan mahsulotga aylantirmoqda. Dasturlash, grafik dizayn, animatsiya, video montaj, raqamli marketing, kopirayting va UX/UI dizayn kabi xizmatlar geografik jihatdan cheklanmagan holda ko'rsatilishi mumkin.

Bu O'zbekiston uchun yoshlar bandligini oshirish va xizmatlar eksportini rivojlantirishning muhim imkoniyatidir.

3. Sun'iy intellektning kreativ xizmatlarga kirib kelishi. Generativ sun'iy intellekt kreativ xizmatlar ishlab chiqarish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirmoqda. AI yordamida matn, tasvir, musiqa, video, dizayn va marketing materiallarini ishlab chiqish mumkin.

Biroq bu jarayon kreativ mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalariga yangi talablar qo'yadi. Endilikda



mutaxassis nafaqat kreativ ko'nikmaga, balki AI vositalaridan foydalanish kompetensiyasiga ham ega bo'lishi kerak.

4. Raqamli kontent iqtisodiyotining rivojlanishi. YouTube, TikTok, Instagram va boshqa raqamli platformalar kontent ishlab chiqaruvchilar uchun mustaqil iqtisodiy faoliyat modelini shakllantirdi. Kontent yaratuvchilar reklama, obuna, homiylik va raqamli mahsulotlar orqali daromad olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

5. Intellektual mulkning iqtisodiy ahamiyatining oshishi. Kreativ xizmatlar bozorida asosiy aktiv ko'pincha moddiy vositalar emas, balki brend, dizayn, dasturiy kod, musiqa, video, kontent va boshqa intellektual mahsulotlardir. Shu sababli mualliflik huquqi va intellektual mulkni himoya qilish kreativ iqtisodiyotning muhim institutsional shartiga aylanmoqda [4] (1-jadval).

1-jadval

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kreativ xizmatlar bozorining asosiy rivojlanish tendensiyalari¹

№	Tendensiya	Asosiy texnologiya	Iqtisodiy ta'siri	O'zbekiston uchun imkoniyat
1	Platformalashuv	Raqamli platformalar, marketplace'lar	Tranzaksiya xarajatlarining kamayishi	Global mijozlarga chiqish
2	Globallashuv	Internet, bulutli texnologiyalar	Xizmatlar eksportining oshishi	Kreativ eksportni kengaytirish
3	AI integratsiyasi	Generativ sun'iy intellekt	Mehnat unumdorligining oshishi	Yangi kreativ kasblar
4	Kontent iqtisodiyoti	Ijtimoiy media, striming	Yangi daromad manbalari	Yoshlar tadbirkorligi
5	Intellektual mulk	Raqamli mualliflik huquqi	Nomoddiy aktivlar qiymatining oshishi	Kreativ brendlarni rivojlantirish
6	Masofaviy mehnat	Bulutli texnologiyalar, hamkorlik vositalari	Mehnat bozorining globallashuvi	Bandlik va xizmatlar eksporti

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kreativ xizmatlar bozorining raqamli transformatsiyasi nafaqat texnologik yangilanish, balki mehnat bozori, xizmatlar eksporti va tadbirkorlikning zamonaviy shakllarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy jarayondir. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi kreativ xizmatlar uchun yangi bozorlarni shakllantirish, xalqaro mijozlar bilan hamkorlikni kengaytirish va yangi iqtisodiy qiymat yaratish imkoniyatlarini oshirmoqda.

O'zbekiston kreativ xizmatlar bozorining institutsional imkoniyatlari.

O'zbekistonda kreativ xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun mavjud institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish va yangi imkoniyatlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, kreativ industriya subyektlarini identifikatsiya qilish va statistik hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish orqali mazkur sohaning iqtisodiy salohiyatini aniq baholash, rivojlanish dinamikasini kuzatish va samarali boshqaruv qarorlarini shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

Ikkinchidan, kreativ sohada faoliyat yurituvchi yoshlar va startaplarni qo'llab-quvvatlash maqsadida inkubatsiya va akseleratsiya markazlari tarmog'ini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday markazlar yangi kreativ g'oyalarni biznes loyihalarga aylantirish, innovatsion tashabbuslarni rivojlantirish va yosh tadbirkorlarning bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, kreativ xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlash uchun raqamli eksport platformalarini rivojlantirish muhim imkoniyatlardan biridir. Mazkur platformalar mahalliy kreativ mutaxassis va kompaniyalarning xalqaro mijozlarga chiqishini yengillashtirib, xizmatlar eksporti hajmini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

To'rtinchidan, oliy ta'lim tizimida dizayn, IT, marketing, media, animatsiya va biznes kompetensiyalarini integratsiyalovchi interdisiplinar ta'lim dasturlarini rivojlantirish kreativ iqtisodiyot uchun zamonaviy va ko'p funksiyali mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi.

Beshinchidan, intellektual mulkni himoya qilishning raqamli mexanizmlarini yanada takomillashtirish kreativ mahsulot va xizmatlarning iqtisodiy qiymatini oshirish, ijodiy faoliyat natijalarini samarali tijoratlashtirish hamda kreativ tadbirkorlikni rag'batlantirish uchun muhim shart hisoblanadi.

Kreativ xizmatlar bozorining iqtisodiy rivojlanish modeli

Tadqiqot natijasida O'zbekiston uchun quyidagi konseptual model taklif qilinadi:

Raqamli infratuzilma → Kreativ inson kapitali → Raqamli platformalar → Kreativ mahsulot → Intellektual mulk → Global bozor → Xizmatlar eksporti.

Mazkur modelda inson kapitali markaziy o'rin egallaydi. Chunki kreativ iqtisodiyotda asosiy raqobat

¹ Muallif tomonidan Howkins [3], UNCTAD [4], UNESCO [6] va World Bank [7] ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

ustunligi texnologiyaning o'zida emas, balki undan samarali foydalanib, yangi g'oya va iqtisodiy qiymat yaratish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Howkinsning kreativ iqtisodiyot haqidagi konsepsiyasiga ko'ra, kreativlik iqtisodiy qiymat yaratishning mustaqil manbasiga aylanadi [3]. Shu sababli O'zbekistonda kreativ xizmatlar bozorini rivojlantirish siyosatini yoshlarning ijodiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa inson kapitalining sifatini oshirish va kreativ xizmatlarning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun mustahkam asos yaratadi.

SWOT-tahlil natijalari. O'zbekiston kreativ xizmatlar bozorining kuchli jihatlari sifatida yoshlar ulushining yuqoriligi, IT va raqamli xizmatlarga qiziqishning ortib borayotgani, internet infratuzilmasining kengayishi hamda mehnat xarajatlarining xalqaro bozorlarga nisbatan raqobatbardoshligi alohida ahamiyatga ega.

Rivojlantirish imkoniyatlari qatoriga kreativ industriya bo'yicha statistik ma'lumotlar bazasini yanada takomillashtirish, xalqaro kreativ brendlarni shakllantirish, professional kompetensiyalarni rivojlantirish va intellektual mulkni tijoratlashtirish mexanizmlarini kengaytirish yo'nalishlarini kiritish mumkin. Mazkur yo'nalishlarning rivojlanishi kreativ xizmatlar bozorining institutsional salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yangi imkoniyatlar sifatida global frilans bozorining kengayishi, AI texnologiyalarining rivojlanishi, kreativ xizmatlar eksportining o'sishi, raqamli kontent bozorining kengayishi va xalqaro platformalarga chiqish imkoniyatlarining ortib borishini ko'rsatish mumkin.

Rivojlanish istiqbollari esa AI texnologiyalari ta'sirida yangi kreativ kasblar va faoliyat yo'nalishlarining shakllanishi, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining takomillashuvi, raqamli platformalardan samarali va diversifikatsiyalangan foydalanish hamda global raqobat sharoitida O'zbekiston kreativ xizmatlarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq.

Shu asosda O'zbekiston uchun kreativ xizmatlar bozorini rivojlantirishning "Creative Digital Uzbekistan — 2030" konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu konsepsiya kreativ ta'lim, raqamli platformalar, eksportni qo'llab-quvvatlash, intellektual mulkni himoya qilish va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini yagona tizimga birlashtirib, kreativ xizmatlar bozorining barqaror rivojlanishi uchun qulay institutsional va iqtisodiy muhitni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida kreativ xizmatlar bozori iqtisodiy o'sishning yangi manbalaridan biriga aylanayotganini ko'rsatdi. Kreativ xizmatlarning asosiy xususiyati moddiy resurslardan ko'ra bilim, kreativlik, intellektual kapital va raqamli texnologiyalarga tayanishidir.

Tadqiqot davomida kreativ xizmatlar bozorining beshta asosiy rivojlanish tendensiyasi — platformalashuv, globallashtirish, sun'iy intellekt integratsiyasi, raqamli kontent iqtisodiyotining rivojlanishi va intellektual mulkning iqtisodiy ahamiyati oshishi aniqlandi.

O'zbekiston sharoitida kreativ xizmatlar bozorini rivojlantirish katta iqtisodiy salohiyatga ega. Xususan, grafik va UX/UI dizayn, dasturlash, animatsiya, video ishlab chiqarish, raqamli marketing, media, arxitektura va kontent yaratish sohalarida xalqaro bozorga yo'naltirilgan xizmatlar eksportini kengaytirish mumkin.

Buning uchun, avvalo, kreativ industrijalarni statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish, kreativ startaplar uchun inkubatsiya va akseleratsiya markazlarini rivojlantirish, xalqaro raqamli platformalarga chiqishni qo'llab-quvvatlash va intellektual mulkni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Shuningdek, ta'lim tizimida IT + dizayn + biznes + marketing + kreativlik kompetensiyalarini birlashtiruvchi interdisiplinar dasturlarni rivojlantirish muhim. Chunki kelajakdagi kreativ mutaxassis nafaqat o'z kasbiy yo'nalishini, balki raqamli texnologiyalar va biznes mexanizmlarini ham yaxshi bilishi kerak.

Kelgusidagi tadqiqotlarda O'zbekiston hududlari bo'yicha Kreativ iqtisodiyot rivojlanish indeksini ishlab chiqish, kreativ xizmatlarning YaIM va bandlikka ta'sirini ekonometrik baholash, kreativ xizmatlar eksportining hududiy salohiyatini aniqlash hamda generativ AIning kreativ kasblar mehnat bozoriga ta'sirini empirik tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, O'zbekistonda kreativ xizmatlar bozorini rivojlantirish raqamli infratuzilma, kreativ inson kapitali, innovatsion platformalar, intellektual mulk va eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatning integratsiyasi asosida amalga oshirilishi lozim. Bunday yondashuv kreativ xizmatlarni ichki bozor uchun xizmat ko'rsatuvchi segmentdan xalqaro raqamli xizmatlar eksportining muhim manbasiga aylantirish imkonini beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Buhalis D., Law R. Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet — The state of eTourism research // *Tourism Management*. — 2008. — Vol. 29, No. 4. — P. 609–623.
2. Florida R. *The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life*. — New York: Basic Books, 2002. — 434 p.
3. Howkins J. *The Creative Economy: How People Make Money from Ideas*. — 2nd ed. — London: Penguin Books, 2013. — 288 p.
4. UNCTAD. *Creative Economy Outlook 2022: The Recent Global Trends and Prospects*. — Geneva: United Nations, 2022. — 132 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida: PF-21-son Farmon, 16.02.2026. <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
6. UNESCO. *Re|Shaping Policies for Creativity: Addressing Culture as a Global Public Good*. — Paris: UNESCO, 2022. — 312 p.
7. World Bank. *The Global Digital Economy: Opportunities and Challenges*. — Washington, D.C.: World Bank, 2023. — 168 p.
8. UNCTAD. *Creative Economy Programme: Creative Industries and Development*. — Geneva: United Nations, 2021. — 96 p.
9. OECD. *The Culture Fix: Creative People, Places and Industries*. — Paris: OECD Publishing, 2022. — 180 p.
10. Potts J., Cunningham S., Hartley J., Ormerod P. Social network markets: a new definition of the creative industries // *Journal of Cultural Economics*. — 2008. — Vol. 32. — P. 167–185.
11. Hesmondhalgh D. *The Cultural Industries*. — 4th ed. — London: SAGE Publications, 2019. — 456 p.
12. Towse R. *A Textbook of Cultural Economics*. — 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2020. — 520 p.
13. UNDP. *Creative Economy and Sustainable Development*. — New York: United Nations Development Programme, 2023. — 104 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100